

## INFORMATIKAGA OID VEB SAYT YARATISH VA UN DAN O'QUV JARAYONIDA FOYDALANISH METODIKASI

**Qurbonov O'tkirbek Sulaymon o'g'li**  
*JDPU Sirtqi bo'lim, Tabiiy va aniq fanlarda  
masofaviy ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

*Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimizi bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.*

*(Sh. M. Mirziyoyev)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada 20-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning maktablarda xorijiy tillar va kasb o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilishi, o'tkazildi. O'rta maxsus ta'lim muassasalarida informatika oid interaktiv veb sayt yaratish va undan o'quv jarayonida foydalanish metodikasi yuzasidan ilmiy izlanishlar mohiyati yoritilgan. Unda informatika oid interaktiv veb sayt yaratish va undan o'quv jarayonida foydalanish metodikasi nazariy asoslari, metodlari va vositalariga alohida e'tibor berilgan. O'rta maxsus ta'lim muassasalarida dasturlash kurslarini online o'qitish va kelajakda zamon talablariga javob bera oladigan darajada dasturchi bo'lish va ushbu kursni o'quv jarayonini tashkil etish metodikasi yoritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *online kurs, dastur, kreativ industriya, ijtimoiy davlat.*

**Аннотация:** *В данной статье 20 января состоялось расширенное совещание Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева по вопросам развития системы иностранных языков и профессионального обучения в школах. Описана сущность научных исследований по созданию интерактивного сайта по информатике в средних специальных учебных заведениях и его использование в образовательном процессе. Основное внимание уделяется теоретическим основам, методам и инструментам создания и использования интерактивного компьютерного веб-сайта в образовательном процессе. Описаны методика преподавания курсов программирования в учреждениях среднего специального образования в режиме онлайн и становление программиста с учетом требований будущего и организация учебного процесса по данному курсу.*

**Ключевые слова:** *онлайн-курс, программа, креативная индустрия, социальное государство.*

**Abstract:** *In this article, the extended meeting of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev on the issues of development of the system of foreign languages and vocational training in schools was held on January 20. On the creation of an interactive website on computer science in secondary special education institutions*

*and its use in the educational process. It focuses on the theoretical foundations, methods and tools of creating and using an interactive computer-related website in the educational process. The methods of teaching programming courses in secondary special education institutions online and becoming a programmer to meet the requirements of the future and the organization of the educational process of this course.*

**Key words:** *online course, programm, creative industry, social state.*

Bugungi kunda mamlakatimizda katta o'zgarishlar bo'lib, tub islohotlar jamiyatimiz va iqtisodiyotimizning barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Jumladan, ta'lim tizimi ham muntazam va uzluksiz ravishda takomillashtirilib, fan va ta'limni rivojlantirishga, yoshlarning chuqur bilim olishiga munosib sharoit yaratishga katta e'tibor berilib, ilg'or xorijiy tajribalar asosida innovatsiya jarayonlariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy bilimlar sari yangicha yo'llarni o'rganish, ta'lim olish jarayonini takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish – bugungi kunning haqli ravishdagi talabiga aylandi. Bugungi kunda mamlakatimizda axborotlashtirish va ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT)ni qo'llash muammolariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarga sifatli oliy ta'lim berish, taraqqiyot bilan hamqadam bo'lib kelayotgan mutaxassislarni tayyorlash borasida ham izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar, avvalo qamrovni oshirish, institut va universitetlarning moliyaviy holatini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratildi. So'nggi 5 yil davomida oliy ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida 12 ta Prezident farmoni, 65 ta Prezident qarori, 169 ta Vazirlar Mahkamasi qarori, 66 ta idoraviy hujjatlar, 1 ta qonun, jami 313 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mamlakatda kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida Mamlakatimizda ta'lim tizimini 2030 qadar rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va u hozirgi kunda amalga oshirib kelinmoqda.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida respublikada so'nggi 3 yilda oliy ta'lim muassasalari soni 132 taga yetkazildi (2016 yilda 77 ta), ulardan 99 tasi mahalliy hamda 33 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari hisoblanadi. Qabul kvotasi 66 mingdan 181 mingtaga oshirildi. Oliy ta'lim muassasalarning texnik bazasi boyitildi. Xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari doirasida 64 ta yangi kasb bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash yo'lga qo'yildi. Professor-o'qituvchilarning maoshi o'rtacha 3,5 baravarga oshirildi.

Band bo'lgan aholiga oliy ma'lumot olish uchun qulayliklar yaratish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining 71 tasida sirtqi va 18 tasida kechki ta'lim shakllari yo'lga qo'yildi. Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar sonining 2,2 barobarga

oshishiga erishildi (agar 2016 yilda 268,3 ming talaba tahsil olgan bo'lsa, 2020 yilda 590,1 ming talaba tahsil olmoqda).

Shuni alohida e'tirof etish joizki, mamlakat hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi ilm-fan va innovatsion rivojlanish sohasida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ushbu sohani tubdan isloh qilish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirilmogda:

ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutuvchi 2017–2021 yillarda ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini mustahkamlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi;

respublikada innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi;

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ta ilg'or mamlakat qatoriga kirishiga qaratilgan 2019–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi;

mamlakatda innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi qonun qabul qilindi;

ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirish va istiqbolda uni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak

ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilmiy-tadqiqot muassasalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga jadal tadbiriq qilishni rivojlantirish maqsadida «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» qabul qilindi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar ilm-fan va innovatsiyalarda ko'plab kamchiliklarni bartaraf etdi, natijada Global innovatsiya indeksi (Global Innovation Index) hisoboti natijasiga ko'ra, respublika reytingi 29 pozitsiyaga yaxshilandi va 131 mamlakat orasida 93-o'rinni egalladi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasida qayd etilganidek, «Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim», degan purhikmat so'zlar, albatta ta'lim, fan va innovatsiyalarning yanada adolatli va barqaror rivojlanishiga intilishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Bugungi kunga kelib axborot texnologiyalari rivojlangan bir paytda turli xil videokursli, gipermatnli va Web sayt ko'rinishdagi darslik va qo'llanmalar paydo bo'ldi va masofadan turib ta'lim olish mumkin bo'lgan ta'lim oluvchi imkoniyatlariga moslasha oladigan ta'lim tizimlariga ehtiyoj sezilmoqda. Shuningdek, talabalarda mobil telefonlar, planshetlar, noutbuklarning ko'payib borishi masofadan turib ta'lim olish imkoniyatini beruvchi ta'lim tizimlariga bo'lgan talabni oshirmoqda. Bunday holda albatta ana shu tizimlarni yarata oladigan tajribali Web dasturchilarni tarbiyalab, voyaga yetkazish, ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida ehtiyojiga qarab foydalanishi uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni (Web dasturlash asoslari, tillari, texnologiyalari, axborot texnologiyalari, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari va h.) o'rgatishdek jarayonni samarali tashkil etish oliy ta'lim muassasalar (keyingilarda OTM) dagi "Web dasturlash" fani o'qituvchilarining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda kompyuter dasturchilarini tayyorlash davr talablari darajasida tashkil etilib, bu borada salmoqli ishlar olib borilmoqda.

Chunki hozirgi kunda milliy ta'lim tizimining salohiyati iqtisodiy rivojlanishning yanada yuqori pog'onasiga ko'tarilishga amaliy imkoniyat ta'minlovchi asosiy ijtimoiy resurs sifatida gavdalanadi.

Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilishi o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini yanada oshiradi, o'z navbatida o'qituvchini ham, talabani ham ijodiy izlanishga undaydi. Bunda o'qituvchiga o'quv jarayonida tashkil etishda mavjud elektron adabiyotlardan, mul'timedia vositalaridan, o'rgatuvchi dasturiy ta'minotlar va boshqa axborot texnologiyalaridan foydalanishi talabaga mavzuga ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi. Hozirgi kunda har bir mutaxassisdan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini bilish va uni amaliyotga qo'llay olish talab qilinmoqda.

Internet resurslaridan ta'lim jarayonida foydalanish o'quv jarayonlarida Web-saytlardan foydalanishni taqoza etadi. Shu bilan bir qatorda bunday saytlarni yaratish yangilab borish ta'lim muassasasi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimi uchun Interaktiv veb saytlar yaratish va ulardan foydalanish jarayoni.

Ta'lim tizimi uchun Interaktiv veb saytlar yaratish va ulardan ta'lim amaliyotida foydalanishning shakli, mazmuni va vositalari.

O'quv muassasalari uchun web saytni ishlab chiqish va ushbu masala zamirida ta'lim yo'nalishining mavjud mutaxassisliklar bo'yicha adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasini yanada boyitish, shuningdek mavjud adabiyotlarni bitta bazada shakllanitirishni rejalash. Mazkur maqsadga erishilishi quyidagi vazifalarning qo'yilishi va hal etilishini nazarda tutadi:

- Dunyo bo'ylab internetdan foydalanish xizmati imkoniyatlarining kengligi;
- Veb-saytlardan foydalanishning oddiyligi;
- Web-texnologiyalarning qulayligi;

- real vaqt masshtabida axborotlarga bo'lgan talablar;
- muassasa va xususiy shaxslarning o'zlari to'g'risidagi axborotlarni internetga joylashtirishga intilishi;
- tarmoq ma'lumotlar bazasida global mashstabdagi ixtiyoriy ma'lumotlarni to'plash.

Umumiy holatda tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- Xorijiy va respublikamiz ta'lim tizimi uchun yaratilgan interaktiv veb saytlar hamda ularni amaliyotga joriy etish borasidagi ishlarni taxlil etish, ularning tuzilishi va mazmuniga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish .

- Interaktiv veb saytlar yaratishning tamoyillarini takomillashtirish.

- Interaktiv veb saytlarni yaratish bosqichlarini asoslash.

- Pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan interaktiv veb sayt yaratish va undan foydalanish metodikasi bo'yicha.

- Interaktiv veb saytlar tushunchasining maqsadi va vazifalari ko'rsatib berilgan;

- Interaktiv veb saytlarni joriy etishda amalga oshirilgan chora-tadbirlarning mohiyati ochib berilgan;

- Interaktiv veb saytlar va ularning o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati ko'rsatilgan.

- Interaktiv veb saytlar tushunchasining maqsadi va vazifalari ko'rsatib berish;

- Interaktiv veb saytlarni joriy etishda amalga oshirilgan chora-tadbirlarning mohiyatini oshkora ochib berish;

- Interaktiv veb saytlar va ularning o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati ko'rsatib berish.

#### **FOYDALANADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ /Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017. - 56 б. (.pdf 17.6Mb).

2. Арипов М. ва бошқ. Информатика ахборот технологиялари. – Т.: Университет, 2007. – 264 с.; 64. Арипов М., Мухаммадиев Ж. «Информатика, Информацион технологиялар» Дарслик. Тошкент, 2004, 330 бет.

3. Абдуқодиров А.А. Таълим тизимида масофали ўқитиш технологияси // Физика, математика ва информатика. – Т.: 2005. – № 3. – Б. 17-23

4. Ғулломов С.С., Р.Х. Алимов ва б.; Ахборот тизимлари ва технологиялари: Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик.– Тошкент: Шарқ, 2000. – 592 бет.